

TO'NG'IZLAR OILASI

Shernazarov Zokirjon Shahobiddin o'g'li

Ismoilov Shaxzod Sherzod o'g'li

O'zbekiston davlat tabiat muzeyi

tabiatmuzeyi1876@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'ng'izlar oilasiga mansub to'ng'iz turlari, to'ng'izlar oilasi umumiy xarakteristikasi, yashash tarzi hamda O'zbekiston davlat tabiat muzeyi ko'rgazma zallaridan joy olgan to'ng'izlar oilasiga kiruvchi O'rta Osiyo to'ng'izi tulumlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: to'ng'izlar oilasi, Baday-to'qay davlat qo'riqxonasi, Chotqol davlat biosferasi, to'ng'iz tulumlari, kavsh qaytarmaydigan, juft tuyoqlilar oilasi.

To'ng'izlar, qobonlar yoki yovvoyi cho'chqalar (*Suidae*) — kavsh qaytarmaydigan juft tuyoqlilar oilasi. To'ng'izlarning 5 ta urug'i bor: so'galli to'ng'izlar, babirusalar, tukquloq to'ng'izlar, o'rmon to'ng'iz ma'lum (1-rasm). Keyingi 4 urug'da bittadan tur, birinchi urug'ga 3 tur; so'galli to'ng'izlar (Malakka yarim orolida), karlik to'ng'izlar (Himolayda) va yovvoyi to'ng'izlar (Shimoliy Afrika va Yevrosiyoda) kiradi. O'zbekistonda to'ng'izlar tog' o'rmonlari va to'qaylarda yashaydi. To'ng'iz (yovvoyi cho'chqa) ancha yirik hayvon, tanasining uzunligi 180sm dan 2 m gacha, vazni 240—300 kg keladi. Tumshug'i uzun, uchi doira shaklidagi yassi va tuksiz harakatchan tog'aydan iborat. Tanasidagi junlari siyrak, asosan, dag'al qillardan iborat. Yuqori jag'laridagi qoziq tishlari yaxshi rivojlangan, uzun, yuqoriga qayrilgan. Oyoqlari 4 barmoqli, yon barmoqlari (2 va 3 sm) kaltaroq bo'lib, yerga zo'rg'a tegib turadi. Oshqozoni oddiy. Gavdasi katta, bo'yini yo'g'on, boshi o'rta hol, tumshig'i konus shaklli ko'ndalangdan kesilgan bo'lib keladi. Uchida juft tuyog'i bor, oyog'i baquvvat, ikkalasi yaxshi yetilgan to'rtta barmog'i bo'ladi. Qulog'i katta va yalpoq, ko'zi kichkina. Gavdasini qalin

junli. Jinsiy tarafidan 18 — 20 oyda voyaga etadi. Onaligi (megajini) 4 — 10 gacha tug'adi. Tishlari ko'p. Qorini yetilmagan, kavish qaytarmaydi. Ozuqa tanlamaydigan hayvon, yerni kovalab qurt-qumursqa, o'simlik ildizlari va kichkina sichqonlar bilan ovqatlanadi.



1-rasm. To'ng'iz turlari.

To'ng'iz Shimoliy Afrika bilan Evrosiyoda tarqalgan, MDH hududida, Boltiq qirg'oqlaridan Sharqgacha uchratish mumkin. O'zbekistonda tog'li joylarda va to'qaylarda, masalan, Baday-to'qay davlat qo'riqxonasi va Chotqol davlat biosferasida uchraydi. Erkaklarining ozuqa tishlari kattakon va yuqori, sirtiga chiqib turadi. Gavdasini jun bosgan. Voyaga yetgan to'ng'izlarning ranggi qo'ng'ir bo'ladi. To'ng'iz bolalarining juni yo'l-yo'l bo'lganidan ularni o'tlar orasidan urg'ochilari oson topib oladi. To'ng'iz bolalari biror xavf tug'ilganida qattiq

chiyillaydi va kattalari ularni himoya qilish uchun tashlanadi.

O'zbekiston davlat tabiat muzeyining ekspozitsiyaga qo'yilgan mingdan ortiq eksponatlari orasida O'rta Osiyo to'g'izi tulumlarini ham ko'rish mumkin. Bu tulumlar orasida xatto to'ng'iz bolasining tulumini ham mavjud. To'ng'izlar tulumini ularning yashash muhitiga mos holda ishlangan "Tog'-yong'oqzor dioramasida" da tomosha qilish mumkin (2-rasm). Ushbu tulumlarning har bittasining o'z tarixi mavjud bo'lib, turli yillarda muzeyga keltirilgan. Misol uchun, 1973-yilda O'rta Osiyo "Zookombinati" dan keltirilib, taksodermist Koltsov tomonidan ishlangan to'ng'iz tulumini, hamda 1986-yilda Jizzah viloyatidan keltirilgan va taksodermistlar Kiryudchikov va Urmanovlar tomonidan ishlangan to'ng'iz bolasining tulumlari shular jumlasidandir.



2-rasm. O'zbekiston davlat tabiat muzeyi "Tog'-yong'oqzor" dioramasidagi to'ng'iz va jo'rpa (kattaroq to'ng'iz bolasi).

Keyingi 4 urug'da bittadan tur, birinchi urug'ga 3 tur; so'galli to'ng'izlar (Malakka yarim orolida), karlik to'ng'izlar (Himolayda) va yovvoyi to'ng'izlar (Shimoliy Afrika va Yevrosiyoda) kiradi. O'zbekistonda to'ng'izlar tog' o'rmonlari va to'qaylarda yashaydi. To'ng'iz (yovvoyi cho'chqa) ancha yirik hayvon, tanasining uzunligi 180sm dan 2 m gacha, vazni 240—300 kg keladi. Tumshug'i uzun, uchi doira shaklidagi yassi va tuksiz harakatchan tog'aydan iborat. Tanasidagi

junlari siyrak, asosan, dag'al qillardan iborat. Yuqori jag'laridagi qoziq tishlari yaxshi rivojlangan, uzun, yuqoriga qayrilgan. Oyoqlari 4 barmoqli, yon barmoqlari (2 va 3 sm) kaltaroq bo'lib, yerga zo'rg'a tegib turadi. Oshqozoni oddiy. Gavdasi katta, bo'yini yo'g'on, boshi o'rta hol, tumshig'i konus shaklli ko'ndalangdan kesilgan bo'lib keladi. Uchida juft tuyog'i bor, oyog'i baquvvat, ikkalasi yaxshi yetilgan to'rtta barmog'i bo'ladi. Qulog'i katta va yalpoq, ko'zi kichkina.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dadayev Saydulla, Zoologiya: Pedagogika oliy quv yurtlari "Agronomiya", "Kimyo va ekologiya" talim y nalistlari talabalari uchun darslik/ S.Dadayev, O. Mavlonov; Oliy va rta maxsus ta'lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika un-ti. — T.: "Iqtisod-moliya" 2008, 184 b.
2. Вавилов М. П. Охота в России во всех её видах. — М.: Типография Ф. Иогансон, 1873. — 224 с.
3. Черкасов А. Записки охотника Восточной Сибири (1856—1863). Издание 1-е. — СПб.: Изд-во С. В. Звонарева, 1867. — 707 с. (Черкасов А. А. Записки охотника восточной сибиря. — М.: Издательство: Физкультура и спорт, 1990. — 575 с.)
4. А. Урусов, «Облавные охоты на копытчатых зверей» («Природа и Охота», 1883 IV), Верненский Гражданин (Б. Карпов), «Мантык — истребитель тигров» (там же, 1880 X).